1. Прочитайте и перескажите текст «Встреча с ветеранами труда». Как в вашей школе организуют встречу с ветеранами?

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

**Билет № 20**

1. Прочитайте и перескажите отрывок из басни «Учитель и ученик» (К. Костина). Почему Тяпкин не показал учителю домашнего задания?

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

**Билет № 21**

1. Прочитайте наизусть стихотворение А. Усачёва «О ногтях».

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

#### **Билет № 22**

1. Прочитайте и перескажите текст А. Павловой «Солнышко, похожее на маму».

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

#### **Билет № 23**

1. Прочитайте и перескажите текст «Четыре бабочки». Как вы думаете, почему птица не увидела бабочек?

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

#### **Билет № 24**

1. Составьте рассказ по картинке.

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

#### **Билет № 25**

1. Прочитайте наизусть отрывок стихотворения М. Дружинина «Правила дорожного движения».

2. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

## **6 -SINF**

### **ONA TILI**

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsadga ko'ra joriy o'quv yilida 6-sinfda ona tilidan bosqichli imtihon yozma ish, ya'ni nazorat diktanti shaklida o'tkaziladi. Diktant matnidagi so'zlar miqdorini belgilashda undagi barcha so'zlar hisobga olinadi. Diktant o'quvchilarning imlo savodxonligini tekshirish va oshirish, bilimlarini mustahkamlash maqsadlariga xizmat qiladi.

#### **Diktantga quyidagi talablar qo'yiladi:**

- yozma nazoratning bu turi o'quv yili davomida o'rganilgan mavzular yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga hamda tekshirishga xizmat qilishi;
- diktant uchun o'tilgan mavzularga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi;



- tanlangan matn o`quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo`lishi, mustaqil o`qilgan yoki o`quvchiga notanish bo`lgan asarlardan olinib, ta'limiy, tarbiyaviy mohiyatga ega bo`lishi lozim.

Diktant matni 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo`lib, bir o`quvchi 3 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn sarlavhasi doskaga yozib qo`yiladi. O`qituvchi tomonidan diktant matni bir marta o`qib eshittiriladi. Matndagi murakkab so`zlar doskaga yozib qo`yiladi. Diktant matni o`qituvchi tomonidan o`qib turib (diktovka usulida) yozdirib boriladi.

**Diktantni baholashda** quyidagicha mezonga amal qilinadi:

«5» ball: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qo`pol bo`lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo`lgan diktantga qo`yiladi.

«4» ball: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo`lgan diktantga qo`yiladi. Xatolar nisbati o`zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to`rttadan, imlo xato esa ikkitadan oshmasligi kerak.

«3» ball: to`rtta imlo hamda to`rtta ishorat xatosi bo`lgan diktantga qo`yiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 ishorat xato va boshqa ko`rinishlarda ham bo`lishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori 4 tadan oshmasligi shart.

«2» ball: yettigacha imlo va 7 ta ishorat xatosi bo`lgan diktantga qo`yiladi.

Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, «1» ball qo`yiladi.

**Eslatma:** 1. Diktantdagi xatolar nisbatan turlicha ko`rinishda bo`lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktantdagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo`lsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo`lsa, «5» ball qo`yilmaydi.

Matn hajmi 110-120 so`zdan iborat bo`lishi lozim.

Diktant yozish uchun 1 astronomik soat (60 daqiqa) beriladi.

## Diktant matnlaridan namuna

### Sarishtalik – noyob fazilat

Uy tartibi, intizomi, saranjomligi, asosan, oila bekasining zimmasida bo`lishi tabiiy. Bunga e'tiroz yo`q, lekin oilada zahmatkash onadan boshqa hech kim yo`qmi? Ishga yaroqli boshqa erkaklar, o`g`il bolalar-chi? Nahotki hamma ishni oila bekasiga tashlab qo`yilsa. Bu vijdon burchidan faqat qo`lidan ish kelmaydigan kichkina bolalaru qarilargina ozod, xolos. Supurgi hamma vaqt bir yerda tursin! Pichoq, sanchqi, qoshiq, taqsimcha, lagan, kosa, xullas, shularga o`xshash narsalarni doimo tayinli joyga qo`yinglar. Qaychi, ip, tugma, ignalarni hamma vaqt bir joyda saqlang, olib ishlatgandan keyin yana joyiga keltirib qo`ying. Ko`zga xunuk narsalarni ko`zdan qochirishga harakat qiling. Yana bir xil oilalarda oshxonadagi idishlari yuvilmasdan pashsha bosib yotadi, qani endi parvoyiga kelsa? Bolalar! Bilib qo`yinglar, har qaysi inson saranjom, toza, tartibli bo`lishi kerak!

(114 so`z. Mirzakalon Ismoilii. )

## **To`g`rilik**

Aytishlaricha, qadim-qadim zamonda bir podsho koshona qurdirishni ixtiyor etibdi. U mashhur hunarmand ustalarni huzuriga chaqirib, maqsadini aytibdi. Ustalar reja tuzib, eng to`g`ri, kam-ko`sti yo`q, baland ustun axtarishib, shaharu qishloqlarni kezib chiqishibdi. Nihoyat, yolg`iz yashovchi kekxa ayol hovlisidagi azim terakni tanlashibdi. Ular kampirga tilla tangalar berib, tekranini kesib olib ketibdilar. Uni saroyning o`rtasiga o`rnatibdilar, zarxal naqshlar bilan ishlov beribdilar. Ustun esa saroy chiroyni yana ham ochib yuboribdi. Saroy bitgach, odamlar uni tomosha qilgani kelishibdi. Saroyini ko`rish uchun kelgan kampir ham ustunga qarab: “To`g`ri o`sganing uchun mana shunday bezanib, el e`tiborini tortib turibsan. Egri bo`lib o`sganingda o`tin bo`lib, yonib kul bo`larding. To`g`rilik senga shunchalar izzat-ikro baxsh etdi. SHu tufayli men ham yo`qchilikdan qutulib, turmushim yaxshilanib ketidi”,-degan ekan.

Demak, to`g`rilik, halollik insonni kamolot sari etaklaydi.

(126 so`z, “Inson odobi” kitobidan).

## **Abadiy tuyg`ular timsoli –Vatan**

Inson yaratganning hukmi bilan qaysi makonda tug`ilsa, voyaga yetsa, unga o`sha joy Vatan bo`ladi. Vatanda insonning avlod-ajdodlari, davlati va xalqi bilan bog`liq an`ana va o`lmas qadriyatlar shakllanadi. Inson nafaqat o`z yurtining yeri va havosi, suvi va tabiatidan foydalanadi, balki Vatan inson uchun bebaho boylik, Vatanning borligi odamga beqiyos kuch-qudrat, g`ayrat-shijoat baxsh etadi. Chunki insonning eng pokiza va muqaddas tuyg`ulari o`zi tug`ilgan, voyaga yetgan zamin-Vatani bag`rida uyg`onadi. Kishi qadrdon yurtida o`zini ozod va erkin his qiladi. Shuning uchun xalqimiz «O`zga yurtda shoh bo`lguncha, o`z yurtingda gado bo`l`” deydi. Demak o`z yurtimizda oddiy kasb egasi bo`lmoq, o`zga yurtda podshoh bo`lishdan afzal ekan. Vatanning o`zi qanchalik bebaho bo`lsa, u bilan bog`liq tuyg`ular ham shunchalik qadrlidir. Shuning uchun Vatan tuyg`usi insonning doimiy ehtiyoji, abadiy tuyg`ular darajasida gavdalanadi. Bu tuyg`u qanchalik mukammal bo`lsa, inson shunchalik barkamoldir.

(135 so`z , “ Dillarda Vatan madhi” to`plamdan)

## **Tarix 6-sinf**

Har yili o`quv yilining tugashi arafasida o`quvchilarning butun yil davomida egallagan bilimlarini tekshirish uchun bosqichli imtihon sinovi o`tkaziladi.

6-sinf o`quvchilarining tarix fani bo`yicha egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini tekshirish maqsadida ushbu bosqichli nazorat sinovi uchun tavsiya etilayotgan imtihon biletleri 5-6 sinflar tarix fani o`quv dasturi asosida tuzilgan.

Imtihon biletleri (30 ta) har biri 3ta savoldan iborat bo'lib, birinchi va ikkinchi savol jahonda va O'zbekistonda mavjud bo'lgan eng qadimgi davlatlar tarixiga oiddir. Uchinchi savol tarixiy atamadan iborat bo'lib, unda o'quvchi atama to'g'risida ma'lumot berishi kerak bo'ladi. Chunki, tarixiy termin va atamalar tarix fanining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'quvchlarning javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

<b>Birinchi va ikkinchi savol quyidagi mezon asosida baholanadi:</b>	<b>Ball</b>
– Muhim voqealarning sanasini aytish;	<b>1</b>
– Tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini bilish;	<b>1</b>
– ko'rsatilayotgan muhim voqeaning sodir bo'lgan joyini xaritadan ko'rsatish;	<b>1</b>
– Tarixiy atamalarning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish; ijobiy va salbiy tomonlarini farqlay olish;	<b>1</b>
– Voqea va hodisalarga o'zining munosabatini bayon qilish.	<b>1</b>

<b>Uchinchi savol quyidagi mezon asosida baholanadi:</b>	<b>Ball</b>
tarixiy atamani to'g'ri talaffiz qilia olsa	<b>1</b>
atama qaysi davlatga taalluqli ekanligini ayta olsa	<b>1</b>
atamaga to'g'ri izoh bera olsa	<b>1</b>
atamaning qaysi davrga taalluqli ekanligini ayta olsa	<b>1</b>
atamaning qaysi sohaga taalluqli ekanligini ayta olsa	<b>1</b>

Har bir javob alohida baholanadi va uchga bo'linadi. Masalan:  $4+4+5=13:3=4,3$  bo'lsa, 4 qo'yiladi. Agar ballar soni 4,5 dan oshsa, 5 qo'yiladi.

Tajribali, ijodkor o'qituvchilar tavsiya etilayotgan biletarga maktab metod birlashmasi qaroriga binoan 15-20% gacha o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishlari mumkin. Tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar uchun esa murakkabroq savollar tizilishi tavsiya etiladi.

Eslatma: O'quvchilarga bilet olganlaridan so'ng tayyorgarlik ko'rish uchun 15, javob berish uchun esa 10 daqiqa vaqt beriladi.

Bosqichli nazorat sinovining yakuniy bali (bahosi) sinf jurnalining Tarix sahifasiga qo'yiladi.

## **Imtihon biletleri**

### **1-Bilet**

1. Tarix fani nimani o'rgatadi?
2. Muzeylar haqida nimalarni bulasiz?
3. Demokratya.

### **2-Bilet**

1. Tarixni o'rganish manbalariga misollar keltiring.
2. Qadimgi davr yozuvlari haqida ma'lumot bering.

3. Strateg.

### **3-Bilet**

1. Yillarni hisoblashga qanday voqea asos qilib olingan?
2. To'maris kimlarga qarshi kurashgan?
3. Iyeroglif.

### **4-Bilet**

1. Arxeologiya fani nimalar haqida ma'lumot beradi?
2. Tangalar qachon va qanday paydo bo'lgan?
3. Delta

### **5-Bilet**

1. Antropologiya va etnografiya fanlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Teshiktosh yodgorligining jahon tarixidagi ahamiyati nimadan iborat?
3. "Nom"

### **6-Bilet**

1. Metall davrining asosiy xususiyatlarini aytib bering.
2. O'rta Osiyolik buyuk allomalar haqida gapirib bering.
3. Fir'avn

### **7-Bilet**

1. Qadimgi dunyoning mo'jizalarini aytib bering.
2. «Avesto»da insonlardagi qaysi fazilat haqidagi g'oya ilgari surilgan?.
3. Papirus

### **8-Bilet**

1. Xammurappi qonunlari va ularning ahamiyati haqida gapirib bering.
2. Buyuk Amir Temur tuzgan markazlashgan davlat haqida gapirib bering.
3. Chandallar

### **9-Bilet**

1. Doro I hukmronligi haqida gapirib bering.
2. O'rta Osiyoda qadimda qanday savdo yo'llari mavjud bo'lgan?
3. Goplitlar

### **10-Bilet**

1. Qadimgi xitoyliklarning mashg'ulotlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Jaloliddin Manguberdi kimlarga qarshi kurashgan?
3. Varvar

### **11-Bilet**

1. Qadimgi davrda Hindistonning madaniyati va fanlar rivoji haqida gapirib bering.
2. Ma'mun akademiyasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Agora

#### **12-Bilet**

1. Qadimgi Misr iyerogliflari haqida gapirib bering.
2. O'rta Osiyoning eng qadimgi davlatlari va ularning joylashuvi haqida gapirib bering.
3. Pedagog.

#### **13-Bilet**

1. Qadimgi xitoyliklarning ixtirolarini to'g'risiga gapirib bering.
2. O'rta Osiyodagi dastlabki maktab qachon paydo bo'lgan?
3. Italiya.

#### **14-Bilet**

1. Buyuk Xitoy devorining qurilishiga nima sabab bo'lgan?
2. "Avesto" kitobi nechta kitobdan iborat va uni kim o'qishga muvassar bo'lgan?
3. Ossuariy.

#### **15-Bilet**

1. Qadimgi Afina demokratiyasi qanday xususiyatga ega bo'lgan?
2. Shiroq qanday jasorat ko'rsatgan?
3. Forum.

#### **16-Bilet**

1. Qadimgi yunon sivilizatsiyalarining yo'q bo'lib ketish sababi nimada edi?
2. Qadimgi manbalarda saklar necha guruhga bo'lingan va qanday hududlarda joylashganlar?
3. Amulet.

#### **17-Bilet**

1. Yunon arxitekturasining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan?
2. Zardushtiylikning asoschisi haqida nimalarni bilasiz.
3. Respublika.

#### **18-Bilet**

1. Gomer dostonlari nimalar haqida hikoya qiladi?
2. Ozbekiston hududida arxeologlar o'rgangan qadimgi manzilgohlar haqida gapirib bering.

3. Koloniya.

### **19-Bilet**

1. Rim imperiyasi qulashining sabablari nimadan iborat bo'lgan?
2. O'zbekiston tarixida Buyuk ipak yo'li qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
3. Konsul.

### **20-Bilet**

1. Rim qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?
2. Qadimgi Xorazm davlati haqida gapirib bering.
3. Senat.

### **21-Bilet**

1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari haqida gapirib bering.
2. Kushon davlati haqida gapirib bering.
3. Teatr.

### **22-Bilet**

1. Qadimgi yunon afsonalarining biri haqida gapirib bering .
2. Qadimgi Baqtriya davlati haqida gapirib bering.
3. Kandidat.

### **23-Bilet**

1. Qadimgi diniy e'tiqodlarning paydo bo'lish sabablarini aytib bering.
2. Qoyatosh suratlari O'zbekistonning qaysi hududlaridan topilgan?
3. Provinsiya.

### **24-Bilet**

1. Ahamoniylar davlatining tashkil topishi haqida gapirib beribg.
2. Spitamen boshchiligadagi qo'zg'olon qanday sababga ko'ra sodir bo'lgan?
3. Gladiator.

### **25-Bilet**

1. Qadimgi Misr davlatining tashkil topishi haqida gapirib beribg.
2. Buyuk olim Ulug'bek haqida nimalarni bilasiz?
3. Metek.

### **26-Bilet**

1. Inson tomonidan yaratilgan dastlabki mehnat qurollari qanday bo'lgan?
2. Kushon davlati haqida gapirib bering.
3. Akademiya.

### **27-Bilet**

1. Yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga bostirib kirishining oqibatlarini haqida gapirib bering.
2. Qadimgi qoyatosh rasmlari qaysi davrda paydo bo'lgan?
3. Maktab.

### **28-Bilet**

1. Dunyodagi qadimgi davlatlar to'g'risida gapirib bering.
2. Temuriylar davri madaniyati haqida so'zlab bering.
3. Labirint.

### **29-Bilet**

1. "12 jadal qonunlari" haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi Davon davlati haqida gapirib bering.
3. Observatoriya.

### **30-Bilet**

1. Birlashgan Millatlar tashkiloti to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekistonning tarixiy-memoriy obidalari haqida gapirib bering.
3. Stipendiya.

## **BOTANIKA**

### **So'z boshi.**

Botanika fani umumta'lim maktablarining 6-sinfida o'qib tugatiladi. O'quvchilar botanika kursidan ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari talab etiladi. Masalan:

- botanika fani mazmunida beriladigan asosiy biologik qonunlar va nazariyalarni bilish;
- o'simlikning ildizi, poyasi, bargi, vegetativ ko'payishi, guli, mevasi va urug'lari, o'simlik organlarining atrof-muhit bilan bog'liqligi, o'simliklar sistemasi, o'simliklarning asosiy bo'limlari, o'simliklar olamining rivojlanishi, o'simliklar qatlami, manzarali o'simliklar haqida bilimga ega bo'lish;
- tur, turkum, oila, sinf, bo'lim to'g'risidagi asosiy sistematik birliklar tushunchalarini bilish;

- o‘simliklarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishning zarurligini bilish va unga amal qila olish;
- O‘zbekistonda botanika fanining rivojlanish tarixini bilish;
- botanikaga oid bilimlardan turmushda va qishloq xo‘jaligi ishlarida foydalana olish.

Botanika fanidan bosqichli nazorat og‘zaki sunov shaklida o‘tkaziladi. Har bir o‘quvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy, 1 tasi amaliy mashg‘ulotga oid bo‘ladi. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi. Masalan:  
 $4+5+3=12:3=4$

O‘quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi. Masalan: «Hujayra va uning tarkibiy qismlari» mavzusida o‘quvchilar quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

- o‘simliklarni hujayralardan tuzilganligini bilish.
- hujayra qanday tarkibiy qismlardan iboratligini bilish.
- hujayra qobig‘ining tuzilishi va vazifasini tushuntira olish.
- sitoplazmaning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish.
- mag‘izning tuzilishi va vazifasini tushuntira olish
- plastidalarning tuzilishi va xillarini bilish
- vakuol va uning vazifasini bilish.

### **Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezon.**

№	Baholash mezon	Baho
1.	Savollar mazmunan to‘la ochib berilsa, tushunchalar to‘liq va aniq yoritilsa	5
2.	Javoblar asosan to‘g‘ri, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida qisman noaniqliklar bo‘lsa	4
3.	Javoblar qisman to‘g‘ri, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa	3
4.	Javoblar to‘g‘ri xulosalanmagan, fikrlar chalkash, tushunchalarda xatolar ko‘p	2
5.	Tushunchalar noto‘g‘ri talqin etilgan, javoblar xato bo‘lsa	1

### **Amaliy ish va laboratoriya mashg‘ulotlarini baholash mezon.**

№	Baholash mezon	Baho
1.	Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketlikka rioya etilgan holda to‘g‘ri va to‘liq bajarilgan, rasm va jadvallar to‘g‘ri ifodalangan, to‘g‘ri xulosalangan bo‘lsa	5
2.	Ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Tajribalar to‘liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda kichik xatoliklarga yo‘l	4



	qo'yilgan bo'lsa	
3.	Ishni bajarish ketma-ketligiga to'liq rioya etilmagan. Ish qisman to'g'ri bajarilgan, lekin natijalar rasm va jadvallarda ifodalanmagan bo'lsa.	3
4.	Jihozlar to'g'ri tanlangan, lekin ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, ishni bajarishga to'g'ri yondashilmagan bo'lsa	2
5.	Jihozlar to'g'ri tanlanmagan, ish noto'g'ri bajarilgan.	1

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

#### 1-bilet

1. Botanika fani qanday bo'limlardan iborat?
2. Ra'nodoshlar oilasiga qanday o'simliklar kiradi?
3. Maktab hovlisida o'suvchi o'simliklarning gullari misolida gul tuzilishini o'rganish.

#### 2-bilet

1. Tabiatda o'suvchi qanday dorivor o'simliklar haqida bilasiz?
2. Karamdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Gerbariydan foydalanib o'simliklarning qanday to'pgulga ega ekanligini aniqlash.

#### 3-bilet

1. Qanday iste'mol qilinadigan o'simliklar haqida bilasiz?
2. Sho'radoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Loviya va bug'doy o'simligi urug'larini tuzilishini o'rganish.

#### 4-bilet

1. Qanday yovvoyi yem-xashak o'simliklari haqida bulasiz?
2. Gulxayridoshlar oilasiga mansub o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Urug' tarkibidagi moddalarni aniqlash.

#### 5-bilet

1. O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan qanday o'simliklar haqida ma'lumotga egasiz?
2. Burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarni tabiatdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Urug'larning nafas olishini tajribada kuzatish.

#### 6-bilet

1. O'simliklarning qanday hayotiy shakllari bor?

2. Ituzumdoshlar oilasi vakillari mevasining tuzilishi qanday?
3. Sut kislotasi hosil qiluvchi bakteriyalarni mikroskopda kuzatish.

#### 7-bilet

1. Kuzda o'simlik hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar haqida qanday ma'lumotga egasiz?
2. O'zbekistonda tokdoshlar oilasining qanday turkumlariga mansub o'simliklar o'sadi?
3. Mag'or zamburug'idan preparat tayyorlash va uni mikroskopda kuzatish.

#### 8-bilet

1. Hujayra qanday qismlardan tuzilgan?
2. Qovoqdoshlar oilasiga mansub madaniy o'simliklar haqida nimalarni bilasiz?
3. Bir hujayrali suv o'tlarni mikroskop ostida kuzatish.

#### 9-bilet

1. Hujayraning o'sishi va ko'payishi qanday amalga oshadi?
2. Ziradoshlar oilasiga mansub osimliklarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
3. Atrofimizda o'sib turgan o'simliklardan yoki gerbariylardan foydalanib yopiq urug'li va ochiq urug'li o'simliklarni o'zaro taqqoslash.

#### 10-bilet

1. O'simlik to'qimalarining qanday turlari bor?
2. Qoqidoshlar oilasiga mansub o'simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Olma, namatak, qulupnay o'simliklarini olib ularning barglaridagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlang.

#### 11-bilet

1. Ildizning qanday turlari va tizimlarini bilasiz?
2. Loladoshlar oilasiga mansub noyob turlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Gerbariylardan foydalanib oq sho'ra va olabo'talarning tuzilishini qiyoslab o'rganing va qanday sharoitda o'sishini aniqlang.

#### 12-bilet

1. Ildizning tashqi va ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Piyozdoshlar oilasiga mansub o'simliklar haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Burchoqdoshlar oilasiga kiruvchi mosh, yantoq, sebarga kabi o'simliklarni gerbariylardan yoki yangi o'simliklardan olingan na'munalarni o'zaro taqqoslash.

#### 13-bilet

1. Ildiz qanday nafas oladi?
2. Bug'doydoshlar oilasi vakillarining poya va barg tuzilishi qanday?
3. Gerbariylardan foydalanib ziradoshlar oilasiga xos belgilarni aniqlang.

#### 14-bilet

1. Novda qanday qismlardan tuzilgan?
2. Gul qanday qismlardan tuzilgan?
3. Biologiya xonasidagi yorug‘sevar va qurg‘oqchilikga chidamli o‘simliklarni aniqlang.

15-bilet

1. Kurtakning tuzilishi va turlari haqida ma’lumot bering.
2. To‘pgullarning qanday turlari bor?
3. O‘tib turgan yoki saqlanayotgan gerbariyalardan foydalanib, qirqbo‘g‘im, archa va namataklarni taqqoslab, ulardagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash.

16-bilet

1. Poyalarning o‘shiga ko‘ra qanday shakllari farq qilinadi?
2. Gullar qanday yo‘llar bilan changlanadi?
3. Bosh piyozning piyozini ichki tuzilishini o‘rganish

17-bilet

1. Poyaning ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Meva qanday qismlardan iborat?
3. Maktab tajriba maydonida o‘suvi o‘simliklarning barg shakllarini o‘rganish.

18-bilet

1. Poya nima hisobiga bo‘yiga o‘sadi?
2. Urug‘ning tuzilishini tushunib bering.
3. Poyada moddalarning harakatini tajribada kuzatish.

19-bilet

1. Poyada oziq moddalarni harakatlanishini tushuntirib bering.
2. Meva va urug‘larning qanday yo‘llar bilan tarqaladi?
3. Kurtakning ichki tuzilishini lupa yordamida kuzatish.

20-bilet

1. Shakli o‘zgargan yer osti novdalarning qanday shakllari bor?
2. Bakteriyalarning tabiatdagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Oldindan tayyorlangan loviya va bug‘doy maysalarini ildizini taqqoslash.

21-bilet

1. Tugunak va ildizpoyali o‘simliklar haqida ma’lumot bering.
2. Zamburug‘larning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ildiz tuklarini mikroskopda kuzatish.

22-bilet

1. Barglarning qanday shakllari farq qilinadi?
2. Tabiatda lishayniklarning qanday xillari uchraydi?
3. O‘q ildiz va popuk ildiz tizimini maktab hovlisidan yig‘ib olingan o‘simliklar misolida o‘rganish.

#### 23-bilet

1. Barglarning tashqi tuzilishini tushuntirib bering.
2. Bir va ko'p hujayrali suv o'tlar haqida ma'lumot bering.
3. Hujayralarning xilma-xilligini ko'rish uchun o'simliklarning turli organlaridan preparat tayyorlash.

#### 24-bilet

1. Barglarning ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Funariya yo'sini qanday usulda ko'payadi?
3. Pomidor hujayrasini lupa yordamida kuzatish.

#### 25-bilet

1. Novdada barglar qanday joylashadi?
2. Dala qirqbo'g'imi haqida ma'lumot bering.
3. Gulli o'simliklarning organlari bilan tanishish.

#### 26-bilet

1. Fotosintez jarayonini tushuntirib bering.
2. Qirqquloqlar bo'limi vakillari qanday sharoitda o'sadi?
3. Barglarning suv bug'latishini tajribada qanday kuzatish mumkin.

#### 27-bilet

1. Barglar qanday nafas oladi?
2. Ochiq urug'li o'simliklarga qanday o'simliklar kiradi?
3. Barglarning nafas olishini tajribada qanday kuzatish mumkin?

#### 28-bilet

1. Barglarning suv bug'latishi qanday amalga oshadi?
2. O'simlik dunyosiga ekologik omillarning ta'siri nimadan iborat?
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalarini tushuntirib bering.

#### 29-bilet

1. Vegetativ usulda ko'payuvchi qanday yovvoyi o'simliklarni bilasiz?
2. O'zbekistonning o'simlik boyligi haqida ma'lumot bering.
3. Piyoz po'sti hujayrasini mikroskop ostida o'rganish.

#### 30-bilet

1. Madaniy o'simliklarning vegetativ ko'payishining qanday shakllari bor?
2. Yerda o'simlik dunyosining rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Mikroskopning tuzilishini tushuntirib bering.